

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Yer to‘g‘risidagi fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Metallurgiya sanoatida hosil bo‘ladigan tarkibida kobalt saqlovchi chiqindilarni kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - kobalt (II), nikel (II), mis (II) va kadmiy (II) ionlarini o‘z ichiga olgan rux ishlab chiqarish sanoati yarim mahsulotlari (keklar) va chiqindi oqava suvlarini kompleks qayta ishlashga ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish orqali qimmatli komponentlarni ajratib olish, chiqindilarni zararsizlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. - mahsulotlar tarkibi to‘liq tahlil qilinadi, metallarni ajratib olish uchun qo‘llaniladigan texnologik jarayonlar sinovdan o‘tkaziladi. Chiqindilar tarkibidagi metallarni ajratib olish jarayonlari ekologik xavfsizlik talablariga javob berishi, chiqindilar hajmini minimallashtirishi va xomashyodan to‘liq foydalanish tamoyillariga asoslanishi lozim. - og‘ir metallarni selektiv ajratish, ularni kimyoviy kompleks shakllarda barqaror holatda tutib turish va qayta tiklanadigan manba sifatida foydalanish va kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqishga asoslanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar “Olmaliq KMK” AJ Rux zavodi sharoitida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.